

DIDAKTIK ADABIYOT NAMUNALARIDA “JAVONMARDLIK” VA “JUVONMARDLIK” TUSHUNCHALARI TALQINI

*Ramazonova Zaynabbegim Baxtiyor qizi,
Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi*

*Ilmiy rahbar: Sharipova Sunbula Ahad qizi
Samarqand davlat pedagogika institute o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” dostoni, Kaykovusning “Qobusnoma” pandnoma asari va Nizomulmulkning “Siyosatnoma” didaktik asarlarida javonmardlik va juvonmardlik tushunchalarining izohi, talqini tahlil etilgan.

Kalit soʻzlar: Abulqosim Firdavsiy, Kaykovus, didaktik asar, Nizomulmulk, didaktik adabiyot, javonmardlik, juvonmardlik.

Abstract: This article analyzes the interpretation and explanation of the concepts of youth and youthfulness in the didactic works of Abulqasim Firdawsi's epic poem “Shahnama”, Kaykovus's epic poem “Qabusnama” and Nizamulmulk's “Siyosatnama”.

Keywords: Abulqasim Firdawsi, Kaykovus, didactic work, Nizamulmulk, didactic literature, youthfulness, youthfulness.

Аннотация: В статье анализируется интерпретация и объяснение понятий «юность» и «молодость» в дидактических произведениях: эпической поэме «Шахнаме» Абулкасима Фирдоуси, эпической поэме «Кабуснаме» Кайковуса и «Сиёсатнаме» Низамульмулька.

Ключевые слова: Абулкасим Фирдоуси, Кайковус, дидактическое произведение, Низамульмульк, дидактическая литература, молодость, молодость.

Bu kki soʻz “Oʻzbek tili izohli lugʻati” da quyidagicha izohlanadi: “jvonmardlik” forsha soʻz boʻlib, baland himmatlilik, saxovatpeshalilik; “Juvonmardlik” 1. Mardlik, botirlik, dovyuraklik. 2. Oliyjanoblik, hotamtoylik maʼnolarida izohlanadi.

Javonmardlik (forscha javonmard – mard yigit) – X–XIII asrlarda Xuroson va Movarounnahrda keng tarqalgan ijtimoiy harakat. Javonmardlik borini yo‘qlar bilan baham ko‘rish, yo‘g‘iga shukur qilib, faqat o‘z hunari evaziga kun ko‘rish, o‘zini do‘stlar xizmatiga bag‘ishlash, boshqalarga beminnat yordam ko‘rsatish, hojatbarorlikni hayotning mazmuni deb bilish, do‘st-birodarlar nomusi, sharafini himoya qilish, zohiran va botinan pok yurib, pok yashashni aglatadigan tushuncha.

Javonmardlar asosan oddiy xalq ichidan chiqqan pahlavonlar, qiziqchilar, hunarmandlar, sipohilar va boshqalardan tashkil topgan bo‘lib, ularning har birining jamoasi, pir, ustoz bo‘lgan. Oddiy yigit javonmardlik tariqatiga kirish uchun pirga qo‘l berib, ustozga sidqi dildan ahdu paymon qilib, mardlik belbog‘ini bog‘lamoqligi kerak bo‘lgan. Barcha javonmardlar bir-biriga aka-uka, birodar bo‘lishgan. Beg‘araz yaxshilik qilish, borini o‘zgalar bilan baham ko‘rish, muhtojlarga erdam berish, piru ustozlar nomusini pok tutish, ma‘naviy va jismoniy yetuklikka intilish, mard va oliyjanob bo‘lish, mol-dunyodan insonni ulug‘ tutish – har bir javonmard ana shu fazilatlarni o‘ziga odat qilib olgan edi.

“Juvonmard” so‘zi IX-X asrlarda “javonmard” shaklida qo‘llanganligiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Eronzaminda yashab ijod etgan Abulqosim Firdavsiyning jahonga mashhur asari “Shohnoma” dostonining “Rustamning yetti sarguzashti” qismi “Suxrobning Rustamni yiqitgani” hikoyatida:

Men senga ochaymi, shergir bahodir,
Javonmardlar aro bor qandayin sir .
Boshqacha bizdagi oinu odat,
Tantilikdan imon topadur ziynat.
Yakka olishuvda birinchi bora.
Yovni yiqsa, yerda yotsa bechora,
Birinchi bor yerga ursa loshini,
Adovatdan darrov kesmas boshini.

Rustam obrazi tomonidan Suxrobga aytilgan ushbu parcha mazmunidan shu anglashiladiki, mard o'g'lonlar kurashganda, adolatli, mard bo'lmog'i lozimligi va natijada uning javonmardlik qilganligi nazarda tutilayapti.

XI asrlar ijodkorlari, Kaykovus va Nizomulmulk o'z zamonasiga kelib, "Javonmardlik" terminini "Juvonmardlik" shaklida ifodalaganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, Kaykovus "Qobusnoma" axloqiy-didaktik asarida "juvonmardlik"ni adolat yuzasidan ish ko'rish ma'nosida keltiradi. Asarda hikoyatning berilishicha: ...Bir iyor yo'l ustida o'tirgan bo'lsa, yonidan bir kishi o'tub ketsa va uning orqasidan qilich yalang'ochlagan kishi o'tirga iyordan : "...falon kishi shu yerdan o'tmadimi deb so'rasa" qanday javob berishi kerak? Agar o'tmadi desa yolg'on so'zlagan bo'lur, agar o'tdi desa g'ammozlik qilgan bo'lur. Bu ikkisi ham juvonmardlik sanalmaydi." - deb bir elchi Ko'histon iyorlaridan juvonmarlik sirini bilishni so'raganida, iyorlar o'rtasida o'tirgan donishmand Afzal Hamadoniy elchiga qarata: "Yo'l utsida turgan kishi bir qadanm ilgari yoki bir qadam keyinroq o'tirib, men bul yerda o'tirib erdim, hech kishini ko'rmadim desa, rost so'z aytgan bo'lur. Ushbu hikoyatdagi parchada ko'rinadiki kishi adolatli ish yuritib, rost so'zlasa ham juvonmardlik bo'ladi, degan ma'no anglashiladi.

Nizomulmulk ham "Siyosatnoma" asarining 36-fasli "To'kin-sochin dasturxon yasatish va ziyofat berish tartibi haqida" qismida javonmardlikni ulug'laydi:

Javonmardiy az korxo behtar ast,

Javonmardiy az xuy payg'ambar ast,

Du gety buvad bar javonmard rost,

Javonmard boshi du gety turost.

Mazmuni:

Juvonmardlik hamma ishdan yaxshidir,

Juvonmardlik payg'ambarlar xulqidir.

Ikki dunyo ham mardu saxiylarniki,

Mard bo'l ikki olam bo'lur seniki.

Ushbu mazmun shuni ko'rsatadiki, Nizomulmulk saxiy va mard insonlarning marlik hamda saxovatpeshaligini payg'ambarlar xulqi hisoblangan juvonmardlikka yo'yadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma", Kaykovusning "Qobusnoma", Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asarlarida ushbu ikki so'zning qo'llangani bejiz emas, ya'ni Payg'ambarimiz sifatleri bo'lgan saxovatpeshalik, mardlik, rostgo'ylik inson komilligida asqatuvchi tushunchalarni asarda yorqin ifodalashgan haqiqatdan inson komil bo'lishda ham haqiqiy javonmard yoki juvonmard bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma. Toshkent - 2018, 239-bet.
2. Kaykovus. Qobusnoma. Toshkent - 2016, 203-bet.
3. Nizomulmulk. Siyosatnoma. Toshkent - 2008, 121-bet.
4. O'zbek tili izohli lug'ati. Toshkent, 2022.